



**KIBERJINOYATLARNI OLDINI OLISHGA DOIR
XORIJIY TAJRIBALAR.**

Yallokobilova Nazokat Gulomovna

Iktisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada axborot texnologiyalar tizimlariga, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi sodir etiladigan kiberjinoyatining tushunchasi va xususiyatlari yoritib berilgan. Hozirgi paytda jamiyat axborot jamiyatiga aylantiril-moqda, bu bir tomondan jamoatchilik bilan aloqalar ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini soddalashtiradi, boshqa tomondan shart-nomalarning maxfiylikni buzish xavfini oshiradi. Shubhasiz, axborot xavfsizligini ta'minlash va texnik taraqqiyot jarayoni milliy xavfsizlikka nisbatan tahdidlarning o'sib borishiga olib kelmoqda. To'liq elektron hujjat aylanishini joriy etish va birgalikda ishlaydigan axborot resurslarini yaratish axborotni tashqi ta'sirga nisbatan yetarlicha himoyasiz holga keltirib qo'ymoqda. Maqolada kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda xalqaro ham-korlik masalasi yoritilib o'tilgan. Shuningdek, xalqaro organlarning maqomi, maxfiylik sohasida yagona huquqiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish istiq-bollari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: axborotni himoya qilish, internet, ma'lumot, kiberjinoyatlar, xalqaro hamkorlik, jinoiy hodisa, jinoyat, kibermaydoni, texnologik taraqqiyot, shaxsiy izquvarlik maxorati

KIRISH

Ma'lumki, zamonaviy dunyoni turli xil texnologiyalardan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. So'nggi yillarda «Internet» va insoniyatning axborot texnologiyalari sohalaridagi ixtirolari natijasida Axborot makonidan foydalanuv-chilar soni kundan-kunga ortib bormoqda va shu tariqa uning ta'siri doimiy ravishda kengaymoqda, natijada butun insoniyat singari jinoyat olami ham rivojlanib, axborot texnologiyalari soxasini mukammal o'rgangan bazi bir shaxs yoki guruxlar tomo-nidan jinoyat sodir etishning yangi texnologiyalarini o'zlashtirmoqdalar. Xullas, axborot makonini o'zlashtirish texnologiyasining paydo bo'lishi bilan jinoyatning yangi turi – kiberjinoyat dunyoga keldi. Dunyo miqiyosida kiberjinoyatlarning tarqalishi shaxdam qadamlar bilan kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shu muno-sabat bilan kiberjinoyatchilik muammosini tushunish masalalari zamonaviy jamiyat-ning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, ichki ishlar organlari xodimlarining kela-jakda shaxsiy izquvarlik maxorati orqali kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning samarali usullarini qo'llash uchun ushbu turdagi jinoyatning tushunchasi va belgila-rini o'rganish xozirgi davr talabi bo'lib qolmoqda. Har bir davlat shaxs va fuqaro o'rtasida huquq va erkinliklarga rioya qilish tamoyillarini doimo muvozanatni saqlaydi, xalqaro hamjamiyatda integratsiya, iqtisodiy o'sish va milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruratini asosiy mezon sifatida e'tirof etadi. Shuni ta'kidlab





o'tishimiz lozimki, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti inson va jamiyat hayotida keng imkoniyatlarni yaratdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kiberjinoyatning vujudga kelishi bilan tadqiqotchilar o'rtasida «kiberjinoyat» atamasi qanaqa bo'lishi va ushbu atama nimalarni o'z ichiga olishi kerakligi haqida munozaralar paydo bo'lib, xonuzgacha davom etib kelmoqda. Tadqiqotchilar o'rta-sidagi bahslar davomida «kiber jinoyat» va «kompyuter jinoyati» atamalarining kombinatsiyasi masalasini ko'taradigan bir necha nazariyachilar mavjud, bu ikki tushuncha o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha birinchi nazariyada «kiber jinoyat» atamasi «kompyuter jinoyati»ga qaraganda kengroqligini ta'kidlaydi. Bu, o'z nav-batida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini samarali ta'minlashni taqozo etmoqda. Bino-barin, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida hozirgi kunda jinoyatchilik dinamikasida kiberjinoyatlarning soni tobora oshib borayotgani sir emas. Ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil boshida esa 4,5 milliard nafardan ortiq inson internet tarmog'idan foydalangan. Bu avvalgi yilning shu davriga nisbatan 7 foizga ko'pdir. Xalqaro elektro aloqa ittifoqi (XTAI)ning bergan ma'lumotida ayti-lishicha, bu borada Yevropa davlatlari eng yuqori (82,5 foiz), Afrika davlatlari eng past (28,2 foiz) ko'rsatkichga ega. Shuningdek, tahlillar dunyoda internet tarmo-g'idan foydalanuvchilarning 26,5 foizini 10-24 yoshdagilar, 26,7 foizini 25-34 yosh-dagilar tashkil etishini ko'rsatadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha esa, xaker-larning aksariyati «bo'sh vaqtini maroqli o'tkazmoqchi bo'lgan» bolalar sanaladi. Internet foydalanuvchilarining yosh profilini aniqlash bevosita axborot texno-logiyalari va xavfsizlik sohasida jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan potensial sub-yektlarni aniqlash imkonini beradi. AQShning «Verizon» kompaniyasi taqdim etgan yillik hisobotga ko'ra, o'tgan yili moliyaviy boylik orttirish internet tarmog'idagi ma'lumotlarni o'g'irlashning asosiy sababi bo'lgan. Ya'ni, hisobotda aytilishicha, 10 ta o'g'irlikning 9 tasi moliyaviy sabablarga ega. Ushbu xulosaga 32 ta mam-lakatda sodir etilgan 4 mingdan ortiq hodisalar hamda 81 ta mamlakatda tasdiqlangan xakerlarning shaxsi va faoliyatini o'rganish natijalariga asoslanib kelingan. So'nggi vaqtlarda xakerlar faoliyatida jinoiy guruhlar bilan aloqalardan tashqari, ular hamda davlat va tijorat tuzilmalari o'rtasida o'zaro hamkorlik tendensiyasi ham ko'zga tashlanmoqda. Mazkur jarayonlarda ba'zi mashhur xakerlar imkoniyatidan axborot xavfsizligini ta'minlashda davlat va xalqaro tashkilotlar faoliyatida foyda-lanib kelinmoqda. Negaki, xakerlarning davlat va huquqni muhofaza qilish organ-lari, tashkilotlar va muassasalar bilan o'zaro hamkorligi nafaqat kiberjinoyatlarni aniqlash, balki oldini olishni ham ta'minlaydi. Bu borada huquqbuzarlarni axloqan tuzatishga, «huquqbuzarlar» toifasidan «tuzalgan shaxslar» toifasiga o'tishga imkon berdi.

Xususan, xalqaro hamjamiyatda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda olib bori-layotgan, ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. 2001 yilda Yevropa Ittifoqi "Kiberjinoyatchilik to'g'risida"gi konvensiyani qabul qilgan bo'lib, bu kompyuter tarmoqlari faoliyati sohasida huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona majburiy



vosita sifatida belgilab olingan. Ushbu Konvensiya nafa-qat Yevropa Ittifoqi doirasida, balki global miqyosda ham ahamiyatlidir. Bu kiberji-noyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi asosiy hujjatlardan biridir. Konvensiyani nafaqat Yevropa, balki Argentina, Avstraliya, Isroil, Yaponiya, AQSH va 50 dan ortiq davlatlar imzolaganlar. O'zbekiston bu konvensiyani ratifikatsiya qilmagan. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi ham ushbu Konvensiyada qatnashmaydi. Kon-vensiyaga qo'shilishiga qarshi bo'lganlarning fikriga ko'ra, davlat suverenitetini buzadi, chunki unda ko'zda tutilgan harakatlar ushbu harakatlar hududida bo'lgan tomonni oldindan ogohlantirmasdan va roziligisiz harakatlarni amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Konvensiyaning tomonlari kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida umumiy siyosat yuritishga, tegishli hujjatlarni qabul qilishga, xal-qaro hamkorlikni mustahkamlashga kelishib olganlar. Kompyuter tizimlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligi buzilishining oldini olish va kompyuter ma'lu-motlari, axborot sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish, tegishli shaxslarni javobgarlikka tortish, tezkor va ishonchli xalqaro hamkorlik to'g'risida bitimlar ish-lab chiqishda kuchli hamkorlikni o'rnatishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Yuqoridagi kiberjinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, kiberjinoyat bu keng ko'lamli, yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan, subyektlari yuqori intellektual ma'lumotlar bilan ajralib turadigan, asosan iqtisodiy maqsadlarga ega bo'lgan va undan foydalanadigan murakkab jinoiy xarakat bo'lib, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etishda jinoyatchilar tomonidan tex-nika olamida eng yangi taraqqiy etgan texnik vositalaridan foydalaniladi. Yurti-mizda olib borilayotgan keng islohotlar zahirida, kiberjinoyat larni tergov qilishda hamkorlik qilish masalasini tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan hujjatlardan biri - Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha Bitim tasdiqlandi. Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston Res-publikasi, Rossiya Federatsiyasi, Moldova Respublikasi, Tojikiston, Turkma-niston, O'zbekiston va Ukraina - ushbu Bitim qatnashchilari hisoblanishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.02.2019 yildagi PQ 4188-sonli qarori bilan 2018 yil 28 sentabrda MDH davlatlari rahbarlari kengashining majlisida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida hamkorlik to'g'ri-sidagi Bitimni tasdiqladi. Ushbu Bitimni amalga oshirish bo'yicha vakolatli organlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi belgilandi. Ushbu hujjat doirasida, axborot texnologiyalari sohasida quyidagi harakatlarni (*agar ular qasddan qilingan bo'lsa*) tergov qilishda Bitimga qo'shilgan davlatlar bilan hamkorlik qilish mumkin:



a) axborotni yo'q qilish, blokirovka qilish, o'zgartirish yoki nusxalash, axborot (*kompyuter*) tizimining ishlashini qonun bilan himoyalangan kompyuter ma'lumot-lariga ruxsatsiz kirish orqali xalaqit berish;

b) zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, foydalanish yoki tarqatish;

v) kompyuter tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan qonun bilan qo'riqlanadigan kompyuter ma'lumotlarini yo'q qilishga, blokirovka qilishga yoki o'zgartirishga olib keladigan qoidalarining buzi-lishi, agar bu xatti-harakat lar jiddiy zarar yoki jiddiy oqibatlariga olib kelgan bo'lsa

g) kompyuter ommaviy axborot vositalarida saqlanadigan yoki ma'lumotlar tarmoq-lari orqali uzatiladigan kompyuter tizimida ishlov berilgan ma'lumotni o'zgartirish yoki kompyuter tizimiga noto'g'ri ma'lumolar kiri-tish orqali mulkni o'g'irlash;

d) qonun bilan himoyalangan kompyuter ma'lumotlariga ruxsatsiz kirish bilan;

e) pornografik materiallar yoki voyaga yetmagan shaxs tasvirlangan pornografik xususiyatga ega obyektlarni "Internet" axborot-telekom-munikatsiya tarmog'idan yoki boshqa elektr aloqa kanallaridan foydalangan holda tarqatish;

j) xavfsiz kompyuter tizimi yoki tarmog'iga ruxsatsiz kira olish uchun marketing yoki maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini sotish uchun ishlab chiqarish;

z) mualliflik huquqiga ega bo'lgan kompyuter tizimlari va ma'lumot lar bazalari uchun dasturiy ta'minotdan noqonuniy foydalanish, Shuningdek, mualliflik huqu-qini o'zlashtirish, basharti bu harakat jiddiy zarar yetkaz-gan bo'lsa;

e) "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'i yoki boshqa elektr aloqa kanal-lari yordamida belgilangan tartibda ekstremistik deb tan olingan yoki terrorchilik faoliyatini yoki terrorizmni oqlashga qaratilgan materiallarni tarqatish.

Shuningdek, xalqaro hamjamiyatda bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2013 yilda Gaagada Yevropa kiberjinoyatchilik markazi ochildi, u kiberjinoyatlar bo'yicha materiallarni yig'adi va qayta ishlaydi hamda ularni tekshirish bo'yicha choralarni ko'radi. 2015 yilda Singapurda Interpol tashab-busi bilan Xalqaro markaz ochilgan bo'lib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash fao-liyati bilan shug'ullanib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar kibertahdidlarni va IT-jinoyatlarni aniqlaydilar va tahlil qiladilar va ularga qarshi kurashish bo'yicha jahon-ning ilg'or tajribalari bilan o'rtoqlashadilar. 2015 yil yanvar oyida Shanxay Ham-korlik Tashkiloti a'zolari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasiga Axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro axloq kodeksini taqdim etishdi, bu axborot muhitida o'zini tutish normalariga bag'ishlangan birinchi xalqaro hujjatdir. Hujjat quyidagi maqsadlarga ega:

- ◆ davlatlarning axborot makonidagi huquq va majburiyatlarini belgilash;
- ◆ davlatning konstruktiv va mas'uliyatli xatti-harakatlarini rag'batlantirish;
- ◆ axborot makonidagi tahdid va tahdidlarga qarshi hamkorlikni kuchaytirish.

Nihoyat, 2018 yil dekabr oyida BMT Bosh assambleyasi "*Xalqaro xavfsizlik kontekstida axborot va telekommunikatsiya sohasidagi yutuqlar*" rezolyutsiyasini qabul qildi, uni qo'llab-quvvatladi 119 davlatdan, 46 mamlakat qarshi ovoz berdi, 14 davlat betaraf qoldi.



Internetda davlatlarning odob-axloq qoidalari tavsiya xarak-teriga ega, BMTning xalqaro axborot xavfsizligi to'g'risidagi konvensiyasini ishlab chiqish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

XULOSA. Shuni ta'kidlash lozimki, jabrlanuvchilarning o'zlari plastik kartalarining raqamlarini jinoyatchilarining aldoviga kirib oshkor qilishgan, bu ularning ishonuvchanligi va tezroq boylik orttirishga bo'lgan qiziqishlari sababli sodir bo'lgan. Shu boisdan, ushbu sohadagi jinoyatlarning oldini olishda birinchidan, fuqa-rolar o'rtasida plastik kartalari raqamlarini oshkor qilmasliklari, ikkinchidan, shartnomalarni faqatgina notarial tartibda amalga oshirishlari, uchinchidan, telefon orqali aloqaga chiqqan har qanday shaxslarning so'zlariga ishonmasliklari va bu haqda zudlik bilan II Olariga xabar berishlari lozimligi haqidagi viktimologik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimdir. Bunda jinoyat sodir etilishiga olib kelgan determinatlarni ham o'rganish maqsadga muvofiqdir. Kriminologiya fanida krimi-nogen vaziyatga ta'sir etuvchi omillarni determinantlar deyiladi. Jinoyatchilikning mohiyati va qonuniyatlari uning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'rganish orqali ochib beriladi. "Determinatsiya", ya'ni voqea, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni bildiruvchi aloqa haqidagi nazariyadan foydalaniladi. Dialektik determinizm tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalar, jumladan kishilarning iroda va xulqlarining umumiy obyektiv qonuniyati borligi va ular bir-biriga bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo etishini e'tirof etuvchi nazariyadir. Ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik turli xil jarayonlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Xalqaro tashkilotlar asosiy maqsad sifatida uyushgan jinoiy tarmoqlar faoliyatiga barham berishni oliy maqsad sifatida belgilab olishlari zarurdir. Fikrimiz yakunida taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish tartibini tartibga soluvchi yagona global hujjat ishlab chiqilmagan bo'lib, kiber kosmosdagi subyektlarning harakatlarini qonuniy tartibga solish, kiberjinoyat-chilikka qarshi kurashish choralarini sayozligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 25 oktabr – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigi//Postda-Na postu. 2021 yil 25 oktabr. №43(4529)., 1-2 b.

2. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (kiberjinoyatlar): turlari, kvalifikatsiyalanishi va ularga nisbatan tergov harakatlarini o'tkazish tak-tikasi [Matn]: o'quv qo'llanma / G. F. Musayev [va boshq.]. — Tashkent: Baktria press, 2020

3. YE.M. Yakimova¹, S.V. Narutto² 1 Baykalskiy gosudarstvenniy universitet, g. Irkutsk, Rossiyskaya Federatsiya

4. Moskovskiy gosudarstvenniy yuridicheskiy universitet im. O.YE. Kutafina (MGYUA), g. Moskva, Rossiyskaya Federatsiya. <https://iiv.uz/news/kiberjinoyatchilikka-qarshi-kurashish-bu-borada-kadrlar-tayyorlashning-muhim-masalalari>

5. Atnashev V. R., Yaxyeyeva S. N. Rossiyskaya akademiya narodnogo xozyaystva i gosudarstvennoy slujbi pri Prezidente Rossiyskoy Federatsii (Severo-Zapadnyy institut



upravleniya RANXiGS), Sankt-Peterburg, Rossiyskaya Federatsiya; * atnashev
vr@ranepa.ru

6. Mustaqil Davlat lar Hamdo'stligiga a'zo davlat larning axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha hamkorligi to'g'risidagi Bitim, 3-moddasi.

7. Absatarov R. R. Protivodeystviye kompyuternomu terrorizmu // Sovremen-naya yurisprudensiya: aktualniye voprosi, dostijeniya i innovatsii. Sbornik statey VI Mejdunarodnoy nauchno prakticheskoy konferensii. 2018. S.

8. Brenner S. Cyberthreats and the Decline of the Nation-State. Routledge, 2014

9. Smith R.G. Criminals on Trial / R.G. Smith, P. Grabosky, G. Urbas. — Cambridge University Press,

10. Begmuradovich, S. A. (2025). EINSATZ VON INFORMATIONSTECHNOLOGIE IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. SOBREMENNHOE OBRAZOVANIE I ISSLEDOVANIYA, 1(3), 97-102.

11. Bekmuradovich, S. A. (2025). THE USAGE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(2), 180-184.

12. Begmuradovich, S. A. (2023). INTEGRATION OF EDUCATIONAL PROCESS FORMS. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH, 2(2), 20-23.

13. Isamutdinova, D. (2024, October). MILLIY TARIX VA MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHISI SIFATIDA O'XSHATISHLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 38-41).

14. Marifjanovna, I. D. (2024). INGLIZ TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 36-37.

15. Marifjanovna, I. D. (2024). NEMIS TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. PEDAGOG, 7(9), 138-139.

16. Marifjanovna, I. D. (2024, June). The Importance of Poems and Songs in the Development of German Vocabulary in Young Children. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (Vol. 8, pp. 1-3).

17. Durdona, I. (2024). INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING CHET TILI O'QITISHDAGI O'RNI. SOBREMENNHOE OBRAZOVANIE I ISSLEDOVANIYA, 1(1), 227-232.

18. Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNALOGIYA ASOSIDA CHET TILI DARSLARINI TASHKIL QILISH. SOBREMENNHOE OBRAZOVANIE I ISSLEDOVANIYA, 1(1), 86-89.

19. Isroilova, H., & Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(2), 218-223.

20. Isamutdinova, D. (2024). LANGUAGE AS A CULTURAL HERITAGE. Экономика и социум, (4-1 (119)), 175-179.